

О'ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI AHAMIYATI

*Muallif: Namangan viloyati chortoq tumani
davlat va huquq nazaryasi fani o'qituvchisi
Muqaddas Rahimjanova Dilmurod qizi*

Turizm XXI asrda jahon iqtisodiyotiga sezilarli darajada ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida kirib keldi. Butunjahon turizm tashkilotlarining ma'lumotlari bo'yicha dunyoda ishlab chiqarish va servis oborotining 10 % ini tashkil qilmoqda¹. Bugungi kunda dunyo manzarasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak xalqaro turizm va ichki turizmning tovar va xizmatlarning kuchli eksport qilinayotganini ko'rishimiz mumkin. Turizm – tarixni o'rganish, o'zga xalqlar va elatlar bilan tanishish, ularning madaniy yodgorliklaridan bahramand bo'lish, shu bilan bir qatorda iqtisodiy oqimdir.

Bu faoliyatni amalga oshirish uchun har bir mamlakat malakali kadrlar va mutaxassislarni tayyorlashi, shuningdek mamlakat aholisi va turizm resurslari talab-ehtiyojlarga javob berishi lozim. O'tgan davrga murojat qiladigan bo'lsak, Yaponiya va Xitoyda turizmga e'tibor juda past darajani tashkil qilar edi. Bu davlatlarda chiquvchi va kiruvchi turistik salohiyat deyarli shakllanmagan edi. Chunki aholining ko'p qismi qishloq xo'jaligida band bo'lgan². Hozirgi kunda esa, bu davlatlar turizmning eng jozibador hududlaridan hisoblanadi. Har bir turistik hudud, har bir mamlakat va shahar iqtisodiy foyda va daromad olish uchun turistik resurslardan oqilona foydalanishga intiladi. Istak kuchli bo'lgani bilan cho'qqiga chiqish mashaqqatni talab etadi. Har qanday mamlakatning o'ziga xos siyosiy yo'nalishlari, iqtisodiy qarashlari hamda jamiyatning an'ana va qadriyatlari uning taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm tizimida yetakchi ro'lni qo'lga olish uchun xorijiy

¹ <https://arxiv.uz>

² Mirzayev M, Aliyeva M. Turizm asoslari. – T.: "O'zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyat Nashryoti", 2011. - B. 13.

turistlarni qabul qiluvchi mahalliy aholining muammo va kamchiliklarini inobatga olish kerak. Kiruvchi turistik faoliyat bilan qabul qiluvchi muhit bir-biriga moslashishi zarur. Agar nomutanosiblik kayfisenti katta farqni ko'rsatsa, turizm amalga oshmasligi mumkin. Bunday holatda turizm ijtimoiy-iqtisodiy hamda aholining madaniy salohiyatidagi hayot tarzini talab etadi.

Bugun mamlakatimizda ichki va tashqi turizmga bo'lgan e'tibor yanada dolzarb masalaga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmon ham buning yorqin isbotidir.

Farmonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, fuqarolarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari bilan tanishtirish maqsadida turli xil amaliy tadbirlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan edi.

Mamlakatimiz aholisining qariyb 60 % ini yoshlar tashkil etishini inobatga olsak, yoshlar turizmni rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri ekanligini anglashimiz darkor. Chunki bugungi yoshlar ertaning istiqboli va kelajagini belgilab beradigan asosiy qatlamdir. Mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti, ayniqsa turizm sohasining rivoji yoshlar qo'lida. Mamlakatimizda yoshlar turizmini tashkil etishdagi ayrim kamchiliklarga duch kelish mumkin.

Abu Nasr Farobiy - "Kuchlarning harakatga aylanishi tajriba yordamida ro'yobga chiqadi. Tajriba o'tkazib, bu tajriba va harakatlarda narsaning haqiqiy mohiyatiga qarama-qarshi holati haqida o'ylab adashgan odam barkamol emas, balki bu ishda kim eng ko'p tajribaga erishsa, o'sha eng mo'tabar va eng barkamol insondir", - deydi³. Biz bugungi iqtisodiy yuksalish davrida qarama-qarshiliklardan ko'ra, tajribalar asosida yangicha bir yo'lni kashf etmog'imiz zarur.

³ Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. . – T.: "Yangi Asr Avlodi", 2018. - B. 17-18.

О'zbekistonda yoshlar turizmni rivojlantirish uchun qanday masalalarga e'tibor berish zarur?

Bunday holatda quyidagi amaliy harakatlarni olib borish maqsadning boshlang'ich nuqtasini belgilab beradi. Ya'ni turizm evolutsiyasini o'rganish va undagi yosh qatlam holatini tahlil qilish. Bugun jamiyatimizda turli qatlamlardagi yoshlar mavjud. Ularni quydagicha tarkib va turlarga bo'lib chiqamiz:

- 1) ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan imkoniyatlari to'liq yoshlar;
- 2) ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan imkoniyatlari noto'liq yoshlar;
- 3) ijtimoiy-iqtisodiy ko'makka muhtoj yoshlar;
- 4) hududning industriallashtirilmagan qismida yashovchi yoshlar;
- 5) oilada iqtisodiy ta'minotchi vazifasini bajarayotgan yoshlar;
- 6) ota-ona qarmog'idan mahrum bo'lgan yoshlar.

Yuqoridagi tasnifni bir-biriga bog'lab, unga amaliy tus beradigan bo'lsak, har bir qatlamdagi yoshlar yaratilayotgan imkoniyatlardan ko'proq foydalansalargina jamiyatda o'z o'rnilariga ega bo'lgan yetuk shaxslardan biriga aynalish potentsiali yuqori ko'rsatgichni ko'rsatadi.

Shu o'rinda yana bir muhim omil mamlakatimizda yoshlar turizmni vujudga keltirishdagi dastlabki bosqich bu - yosh davrlari jihatidan farqlanuvchi sinflarni qamrab olish:

- 1) maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar;
- 2) maktab davridagi bolalar;
- 3) oliy ta'limdagi yoshlar.

Bugun mamlakatimizda yoshlar turizmni rivojlantirish nafaqat mamlakat iqtisodiyotiga balki yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ta'siri nuqati nazaridan ham ahamiyatlidir. Buni quydagicha asoslash mumkin:

Birinchi, tarixni bilish va moddiy-madaniy meroslarga qiziqish tuyg'usini rivojlantirish;

Ikkinchi, yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish;

Uchinchidan, yurtimizdagi buyuk allomalarning boy ma'naviy meroslarini asl mazmun mohiyatini anglab yetish;

To'rtinchidan, ekstremistik va terroristik guruhlariga qo'shilishning oldini olish;

Beshinchidan, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirish;

Oltinchidan, turli fanlardan (geografiya, psixologiya, etnografiya, huquq, iqtisod, informatika) bilim va ko'nikmlarini amaliy jihatdan rivojlantirish;

Yetinchidan, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini mustahkamlash.

Demak, "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil" dasturi avval yosh avlodlar uchun qo'llanilishi lozim.

Yoshlar turizmini rivojlantirishning quydagi samarali usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Birinchi usul, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar uchun mamlakatimizning moddiy-madaniy va ma'naviy yodgorliklarini to'plam kitob holida nashr etish va shunga doir multfilmlar tayyorlash;

Ikkinchi usul, maktabda ta'lim olayotgan o'quvchilar darsliklaridagi tarixiy obidalar va buyuk allomlar xususida video disklar tayyorlash, ya'ni darslik qamrab olgan mavzularni jonli va ishonchli yetkazib berish;

Uchinchi usul, shahar, tuman, qishloqlardagi e'tiborga molik joylarda turli festivallarni tashkil etish;

To'rtinchi usul, bosqichma-bosqich yoshlar o'rtasida musobaqalar tashkil etib, g'oliblarga "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil" chiptasini joriy etish;

Beshinchi usul, eng chekka hududda yashovchi yoshlar va bolalarning bilim salohiyatini oshirish hamda ijtimoiy tenglik, millat taqdiriga befarq emaslik ruhini uyg'otish maqsadida, xayriya fondi yaratib 24 soatlik sayohatlar tashkil etish;

Oltinchi usul, maktabgacha ta'lim, o'rta va umumiy ta'lim, shuningdek oliy ta'lim muassasalari uchun tarixiy obidalar, moddiy-ma'naviy meroslar haqida video roliklar ishlash va munatizam yoshlarga taqdim etib borish.

Xulosa qilganda faylasuf shoir Bedil aytganidek: “Bino poydevorining birinchi toshi qiyshiq qo’yilsa, binoning boshi yulduzlarga yetsa ham u qiyshiq bo’lib qolaveradi”. Umid qilamizki yuqoridagi usullar albatta O’zbekistonda yoshlar turizmi to’g’ri va maqsadli rivojlantirish, ta’lim-tarbiya jarayoning ham ma’lum darajada taraqqiyot bosqichini belgilab beradi.

Shuningdek, yoshlar turizmi davlatning ijtimoiy, madaniy va ta’lim-tarbiya sohalariga sezilarli darajada ta’sir ko’rsatadi. Butun jamiyat orzu-umidlarini hurmat qilish va adolatparvarlikka asoslangan muhitni yaratish, insonlar bir-birini tushunish, yoshlar o’rtasida o’zaro ishonch va yurtga sadoqatning yuqori darajasiga erishishdagi omil bo’lib xizmat qiladi. Shuningdek, yoshlarning turistik faoliyatni amalga oshirish, ish bilan bandlik, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o’z-o’zini to’ldira olish, istiqomat qilayotgan hududini mukammal bilish, yurtimizda mavjud tarixiy yodgorliklarga qiziqish, allomalarning ma’naviy me’rosiga muhabbat tuyg’ularini shakllantiradi.

Foyda lanilgan adabiyotalar:

1. <https://arxiv.uz>
2. Mirzayev M, Aliyeva M. Turizm asoslari. – Toshkent. “O’zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati Nashryoti”, 2011.
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent “Yangi Asr Avlodi”, 2018.